



*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi*

# SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR-MART  
OYLARI MA'LUMOTLARI




Sanoat statistikasi bo'limi  
Tel.: 67-236-86-23

## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-mart oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2816,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 113,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (50,4 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1420,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



*B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 3,6 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-mart oylarida, % da)




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1371,5 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 48,7 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,  
(yanvar-mart oylarida, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,5 % ni (2021- yilning yanvar–mart oylarida – 2,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,5 % (2021- yilning yanvar–mart oylarida –2,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 20,4 % (2021- yilning yanvar–mart oylarida –15,5 %) va quyi texnologiyalisi – 70,9 % (2021- yilning yanvar–mart oylarida –79,3 %) ni tashkil etdi.




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % spirt	129,7	75,5	-54,2
Sellyuloza, kg 90%	495355,0	1627618,0	132263
Tarkibida alkaloidlar bo'lgan yoki bo'lmagan gormonlar va antibiotiklar, t	1321,0	409,8	-911,2
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	14,4	18,6	4,2
Paxta tolasi, ming t.	5,1	2,1	-3,0

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati**  
(yanvar-mart oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,7 % ni, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,8 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 364,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-mart oylarida)

**FHI**  
**% da**



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 3,6 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 56,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar-mart oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 34,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 122,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 96,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 387,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**% da**



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-mart oylarida)



2020- y. 2021- y. 2022- y.


2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 98,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4 % ni, fizik hajm indeksi 92,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 60,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

(yanvar-mart oylarida)

2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 86,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,4 % ni, fizik hajm indeksi 182,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 114,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



2020- y. 2021- y. 2022- y.

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


yanvar-mart oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1420,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (50,4 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,5 % ga kamayganligi kuzatildi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,** (yanvar-mart oylarida, % da)




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4590,3	4807,8	217,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	45,6	47,1	1,5



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-mart oylarida*



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,


*(yanvar-mart oylarida, % da)*



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	11401,0	9701,0	-1700
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	548,1	2001,0	1452,9
Shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	2419,5	3883,6	1464,1

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1057,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 124,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 37,5 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 39,6 % ni, shuningdek, Guliston shahri 17,9 % ni, Mirzaobod tumani 8,8 % ni hamda Guliston tumani 7,6 % ni tashkil etdi.
















Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatning o'sish sur'ati (124,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod tumani (240,7 %), Guliston tumani (169,1 %), Sayxunobod tumani (138,5 %), Sirdaryo tumani (126,0 %), Xovos tumani (117,9 %), Guliston shahri (106,1 %) hamda Oqoltin tumanida (105,7 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2022-yilning yanvar-mart oylarida

							
Mlrd. so'm			Ulushi % da		O'sishi % da		
1057,0			100		124,1		
<b>Sirdaryo viloyati</b>							
Mlrd. so'm			Ulushi % da		O'sishi % da		
189,4			17,9		106,1		
<b>Guliston sh</b>							
21,7			2,1		99,1		
<b>Sardoba</b>							
Mlrd. so'm			Ulushi % da		O'sishi % da		
6,2			0,6		112,4		
<b>Shirin sh</b>							
56,6			5,4		138,5		
<b>Sayxunobod</b>							
Mlrd. so'm			Ulushi % da		O'sishi % da		
78,7			7,4		101,0		
<b>Yangiyer sh</b>							
419,5			39,6		126,0		
<b>Sirdaryo</b>							
Mlrd. so'm			Ulushi % da		O'sishi % da		
47,2			4,5		91,6		
<b>Boyovut</b>							
44,1			4,2		117,9		
<b>Xovos</b>							
Mlrd. so'm			Ulushi % da		O'sishi % da		
80,8			7,6		169,1		
<b>Guliston</b>							
Mlrd. so'm			Ulushi % da		O'sishi % da		
93,2			8,8		240,7		
<b>Mirzaobod</b>							
Mlrd. so'm			Ulushi % da		O'sishi % da		
19,6			1,9		105,7		
<b>Oqoltin</b>							

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 44,4 % shuningdek, Guliston shahri 16,6 %, Mirzaobod tumani 11,0 % va Guliston tumani 9,9 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2022- yilning yanvar-mart oyida

	Mlrd. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da		
	706,3			100			145,2		
<b>Sirdaryo viloyati</b>									
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	116,8	16,6	118,2		4,5	0,6	71,0		
<b>Guliston sh</b>				<b>Sardoba</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	2,0	0,3	85,0		7,4	1,1	285,6		
<b>Shirin sh</b>				<b>Sayxunobod</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	68,0	9,6	106,3		313,7	44,4	148,2		
<b>Yangiyer sh</b>				<b>Sirdaryo</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	10,8	1,5	69,2		27,2	3,8	163,1		
<b>Boyovut</b>				<b>Xovos</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	69,6	9,9	187,8						
<b>Guliston</b>									
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	77,6	11,0	338,6						
<b>Mirzaobod</b>									
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	8,7	1,2	103,2						
<b>Oqoltin</b>									

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 30,1 % ni, shuningdek, Guliston shahri 20,7 %, Sayxunobod 14,0 %, Boyovut tumanlari 10,4 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2022- yilning yanvar-mart oylarida
















Mlrd. so'm		Ulushi % da		O'sishi % da	
350,7		100		96,0	
<b>Sirdaryo viloyati</b>					
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
72,5	20,7	91,1	17,3	4,9	110,4
<b>Guliston sh</b>			<b>Sardoba</b>		
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
4,2	1,2	132,4	49,2	14,0	128,5
<b>Shirin sh</b>			<b>Sayxunobod</b>		
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
10,7	3,1	76,6	105,8	30,1	87,3
<b>Yangiyer sh</b>			<b>Sirdaryo</b>		
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
36,4	10,4	101,3	16,9	4,8	81,6
<b>Boyovut</b>			<b>Xovos</b>		
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
11,2	3,2	104,1			
<b>Guliston</b>					
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
15,6	4,5	98,9			
<b>Mirzaobod</b>					
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
10,9	3,1	107,8			
<b>Oqoltin</b>					

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2022- yilning yanvar-mart oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 431,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 15,3 % ni tashkil etdi.

## Viloyatning hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-mart oylarida*

	<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>			
	<b>2816,8</b>			<b>100,0</b>			<b>113,7</b>			
<b>Sirdaryo viloyati</b>										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	<b>246,8</b>	<b>8,8</b>	<b>101,2</b>		<b>25,7</b>	<b>0,9</b>	<b>107,6</b>			
<b>Guliston sh</b>				<b>Sardoba</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	<b>1361,3</b>	<b>48,3</b>	<b>114,2</b>		<b>83,6</b>	<b>3,0</b>	<b>94,1</b>			
<b>Shirin sh</b>				<b>Sayxunobod</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	<b>131,8</b>	<b>4,7</b>	<b>94,0</b>		<b>534,8</b>	<b>19,0</b>	<b>122,0</b>			
<b>Yangiyer sh</b>				<b>Sirdaryo</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	<b>136,0</b>	<b>4,8</b>	<b>101,0</b>		<b>47,7</b>	<b>1,7</b>	<b>107,6</b>			
<b>Boyovut</b>				<b>Xovos</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	<b>81,3</b>	<b>2,9</b>	<b>112,6</b>							
<b>Guliston</b>										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	<b>98,2</b>	<b>3,5</b>	<b>120,5</b>							
<b>Mirzaobod</b>										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	<b>69,6</b>	<b>2,5</b>	<b>56,1</b>							
<b>Oqoltin</b>										

## Viloyatning jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyatning sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 48,3 %), Sirdaryo tumani (19,0 %), Guliston shahri (8,8 %), Boyovut tumani (4,8 %), va Yangiyer shahri (4,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.
















Eng past ko'rsatkich esa Oqoltin (2,5 %) hamda Sardoba (0,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (71418,0 ming so'm), Sirdaryo tumanida (4031,2 ming so'm) hamda Guliston shahrida (2622,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3197,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1200,0 ming so'm bo'lgani holda, Sirdaryo tumanida – 3161,9 ming so'mni, Guliston shahrida – 2012,8 ming so'mni, Yangiyer shahrida – 1731,0 ming so'mni, Mirzaobod tumanida – 1207,3 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
2022- yilning yanvar-mart oylarida, ming so'm**

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>		<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		
	3197,9		1200,0		
<b>Sirdaryo viloyati</b>					
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	2622,4	2012,8		376,3	317,8
	<b>Guliston sh</b>			<b>Sardoba</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	71418,0	324,9		1041,8	705,9
	<b>Shirin sh</b>			<b>Sayxunobod</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	2899,4	1731,0		4031,2	3161,9
	<b>Yangiyer sh</b>			<b>Sirdaryo</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	1012,6	351,3		481,2	444,4
	<b>Boyovut</b>			<b>Xovos</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	1067,6	1060,8			
	<b>Guliston</b>				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	1271,2	1207,3			
	<b>Mirzaobod</b>				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	1287,3	362,2			
	<b>Oqoltin</b>				




## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022- yilning yanvar-mart oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 870,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,9 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Boyovut (95,8 %), Xovos (80,1 %), Sayxunobod tumanlarida (76,5 %) hamda Yangiyer shahrida (62,3 %) kuzatildi.




### Viloyatimiz

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes sub'yektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki Oqoltin tumanida (30,8 %), Sirdaryo tumani (55,6 %), Yangiyer shahri (62,3 %) va Guliston (43,0 %) tumanlarida hamda Shirin shahrida (0,5 %) sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes sub'yektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini**  
(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2177 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 527 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 24,2 %) Guliston shahriga, 366 tasi (16,8 %) Sirdaryo tumaniga, 193 tasi (8,9 %) Yangiyer shahriga, 187 tasi (8,6 %) Boyovut tumaniga, 170 tasi (7,8 %) Mirzaobod tumaniga, 163 tasi (7,5 %) Sayxunobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 105 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 20 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi (19,0 %) Guliston shahrida, 19 tasi (18,1 %) Sayxunobod, 11 tasi (10,5 %) Mirzaobod, 9 tasi (8,6 %) Boyovut hamda 8 tasi (7,6 %) Xovos tumanlarida tashkil etildi.